



O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Bazaviy inflyatsiya va uni baholash usullari

Markaziy bank Boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrdagi
34/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan

Bazaviy inflyatsiya va uni baholash usullari

Bazaviy inflyatsiya pul-kredit siyosati sohasidagi qarorlarni qabul qilishda muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, iqtisodiyotdagi narxlarning vaqtinchalik o'zgarishlari ta'siridan xoli bo'lgan inflyatsiyaning umumiy tendensiyasini ifoda etadi.

Umumiy inflyatsiya ko'rsatkichi (iste'mol narxlari indeksi - INI o'zgarishi) uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxlarining umumiy o'zgarishi asosida yashash qiymati o'zgarishini aks ettiradi (2025 yil holatiga INI savatiga jami 510 ta tovar va xizmat narxlari kiritilgan).

Bazaviy inflyatsiyani baholashda, odatda, INI savatidagi narxlari keskin tebranuvchan va (yoki) ma'lum bir siklik xarakterga ega bo'lgan, shuningdek, ma'muriy tarzda tartibga solinadigan tovar hamda xizmatlarni qo'shmagan holda o'rtacha narxlar o'zgarishi e'tiborga olinadi. Bu, umumiy inflyatsiya tendensiyalarini aniqlashda sezilarli ahamiyatga ega bo'lmagan narxlarni chetlab, iste'mol narxlari o'zgarishining trendini o'rganish imkonini beradi.

Inflyatsiya trendini tahlil qilishning ahamiyati shundaki, pul-kredit siyosati o'zining choralari va vositalari orqali inflyatsiyaning aynan ushbu qismiga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Bu, aynan bazaviy inflyatsiya tarkibiga kiruvchi narxlar asosan bozor tamoyillari, ya'ni talab va taklif asosida shakllanishi bois, pul-kredit siyosati iqtisodiyotdagi yalpi talabga o'z ta'sirini ko'rsatish orqali namoyon eta olishi bilan bog'liq.

Umumiy inflyatsiya tarkibidagi tebranuvchan yoki ma'lum qoidalar asosida shakllanadigan narxlar iqtisodiyotdagi talab va taklif muvozanatini aks ettirmasligi yoxud boshqa taklif omillari bilan bog'liq shoklar yoki nomutanosibliklar natijasida umumiy inflyatsiya darajasidan vaqtincha og'ishiga sabab bo'lishi mumkin. Bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichi iste'mol narxlaridagi o'zgarishlarni qisqa muddatli nomutanosibliklar va trend dinamikasiga ajratib tahlil qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichlarini hisoblashda uchta usuldan foydalanadi: bazaviy INI, qisqartirilgan INI, INI medianasi.

1. Bazaviy INI – bu iste'mol narxlari indeksidan ma'lum bir belgilangan tovar va xizmatlar guruhini chiqarib tashlash orqali hisoblash usulidir. Xususan, hisoblashda chegiriladigan tovar va xizmatlar guruhi tartibga solinadigan, jahon narxlariga yuqori bog'liqligi bo'lgan va mavsumiy xarakterga ega narxlarni o'z ichiga oladi.

Tartibga solinadigan narxlar hukumat yoki mahalliy hokimiyatlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri belgilanadigan yoki ma'muriy qarorlar asosida shakllanadigan iste'mol tovar va xizmatlar narxlarini o'zida aks ettiradi. Tartibga solinadigan narxlar bozor mexanizmlari asosida shakllanmaganligi sababli inflyatsion tendensiyalarni yaqqol aks ettirmasligi mumkin.

Jahon narxlariga bog'liqligi yuqori bo'lgan tovarlar (*misol uchun energiya resurslari va boshqalar*) narxleri shakllanishiga ochiq iqtisodiyot sharoitida ichki talab va taklif omillari unchalik ta'sir ko'rsatmaydi.

Mavsumiy xarakterga ega guruhga mavsum o'zgarishi bilan ularga bo'lgan talab va (*yoki*) taklif o'zgarib borishi, ya'ni ta'sirchanligi mavjud bo'lgan iste'mol tovar va xizmatlar kiritiladi.

Bazaviy INI iste'mol narxleri savatidan ma'muriy tarzda tartibga solinadigan (*1-ilovaga muvofiq, kommunal xizmatlar, jamoat transporti, energiya resurslari, ta'lim muassasalari to'lovlari va boshqalar*) hamda mavsumiy meva va sabzavotlar (*2-ilova*) narxlarini chiqarib tashlash orqali qolgan tovar va xizmatlar narxleri o'zgarishini o'rtacha arifmetik tortilgan qiymati usuli yordamida hisoblanadi. Bunda, bazaviy inflyatsiya tarkibiga kiruvchi tovar va xizmatlar vaznlari normallashtiriladi.

1-ilova va 2-ilovadagi tovarlar va xizmatlar ro'yxatiga Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan INI savati va narx shakllanishining o'zgarishlari asosida tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi.

2025 yil holatiga, bazaviy INI jami iste'mol savatining 78 foizini qamrab olgan va 458 ta tovarlar va xizmatlardan iborat. Shundan, 140 tasi oziq-ovqat mahsulotlari (INIdagi ulushi 35,5 foiz), 245 tasi nooziq-ovqat mahsulotlari (27 foiz) va 73 tasi xizmatlar (15,2 foiz) narxleri.

Ma'muriy tarzda tartibga solinadigan narxlar jami iste'mol savatining 15 foizini tashkil etib, 26 ta tovar va xizmatlarni o'z ichiga olgan. Mavsumiy narxlar jami iste'mol savatining 7 foizini tashkil etib, 26 turdagi meva va sabzavotlarni qamrab olgan.

Xorijiy tajriba

AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bazaviy inflyatsiya iste'mol narxleri savatidan (INIdan) oziq-ovqat va energiya tovarlari narxlarini chiqarib yuborish orqali hisoblanadi.

Ozarbayjonda bazaviy inflyatsiyani aniqlashda INIdan mavsumiy tovarlar, shu bilan birga, narxleri ma'muriy tarzda tartibga solinadigan

xizmatlar (uy-joy kommunal xizmatlari, transport va aloqa xizmatlari, bank xizmatlari va h.k.) hamda yoqilg'i mahsulotlari inobatga olinmay hisoblanadi.

Armanistonda bazaviy inflyatsiyani hisoblashda INIdan jahon bozorida narxlari sezilarli oshgan tovarlar/xizmatlar yoki noqulay ob-havo tufayli narxlari keskin qimmatlashgan mahsulotlar chiqarib tashlanadi (misol tariqasida: ayrim yillarda uy-joy kommunal xizmatlari yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari noqulay ob-havo sharoitlari sabab iste'mol narxlari savatidan chiqarilib bazaviy INI hisoblangan).

Qozog'istonda meva va sabzavotlar, benzin, ko'mir, dizel yoqilg'isi, uy-joy kommunal xizmatlari, temiryo'l transporti hamda aloqa xizmatlarini INIdan chiqarib tashlash orqali hisoblanadi.

Qirg'izistonda inflyatsiyaning bazaviy ko'rsatkichini hisoblashda INIdan oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar guruhiga kiruvchi hamda narxlari mavsumiy o'zgaruvchan bo'lgan mahsulotlar (sut, meva-sabzavotlar), shuningdek narxlari ma'muriy tarzda boshqariladigan, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari guruhidagi ayrim mahsulotlar olib tashlanadi. Nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar guruhlaridan esa uy-joyi ta'mirlashga mo'ljallangan ayrim turdagi materiallar, elektr energiyasi, gaz va boshqa yoqilg'i mahsulotlari, transport, aloqa va boshqa ma'muriy tarzda boshqariladigan xizmatlar chiqarib tashlanadi.

Rossiyada bazaviy inflyatsiyani hisoblashda INIdan quyidagi tovar va xizmatlar chiqarib tashlanadi: meva va sabzavotlar, yoqilg'i, ma'muriy tarzda boshqariladigan xizmatlar (ayrim yo'lovchi tashish xizmatlari, aloqa, bank va yuridik xizmatlar).

Ukrainada iste'mol narxlari savatidan mavsumiy tovarlar, qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari va ma'muriy tarzda boshqariladigan xizmatlar narxlarini chiqarib tashlash orqali bazaviy inflyatsiya hisoblanadi.

2. Qisqartirilgan INI – bazaviy inflyatsiyaning yana bir hisoblash usuli bo'lib, ko'rsatkichni hisoblashda INI savatidan ma'lum bir belgilangan vaznga ega (*INI savati vaznlariga muvofiq*) o'zgarishi eng yuqori va eng kichik qiymatlarga ega bo'lgan narxlar chiqarib tashlanadi. Ushbu yondashuv ayrim tovar va xizmatlarga xos bo'lmagan omillar ta'siri natijasida narxlarda haddan tashqari yuqori tebranishlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Qisqartirilgan INIning hisoblashda iste'mol savati tarkibidagi tovar hamda xizmatlar narxlari eng yuqori pasaygan narxlardan, eng yuqori oshgan narxlarga qarab o'sish tartibida joylashtiriladi.

O'zbekiston Markaziy banki tomonidan qisqartirilgan INIning baholashda INI savatining narxi eng past oshgan 15 foizi va eng yuqori oshgan 15 foizi (*INI savati vaznlari asosida*) hisobga olinmaydi.

Bunda, INI iste'mol savatining qolgan qismi o'rtacha arifmetik tortilgan (*normallashtirilgan vaznlar*) usulida umumlashtiriladi. Qisqartirilgan INI umumiy INI vaznining 70 foizini qamrab olib, undagi tovar va xizmatlar ro'yxati har oyda o'zgarib turadi.

Xorijiy tajribaga ko'ra qisqartirilgan inflyatsiyani hisoblashda iste'mol narxlari savatidan chiqarib tashlanadigan tovar va xizmatlarning ulushi Turkiyada 38 foizni, ya'ni qisqartirilgan inflyatsiyani baholashda INI tarkibidagi narxlari eng past oshgan 19 foiz hamda eng yuqori oshgan 19 foiz (INI savatidagi vazn asosida) tovar va xizmatlar narxlari inobatga olinmaydi. Shuningdek, Kanada, Avstraliya va Polshada ushbu ko'rsatkich 30 foizni, Norvegiyada 20 foizni, Qozog'iston va AQShda 16 foizni, Yangi Zelandiyada esa 10 foizni tashkil etadi.

3. INI medianasi – bazaviy inflyatsiyaning yana bir muqobil ko'rsatkichi bo'lib, iste'mol narxlari o'zgarishining markaziy tendensiyasini ifodalaydi. INI medianasi sifatida umumiy iste'mol narxlari o'zgarishi taqsimotining 50-persentiliga mos keladigan narx o'zgarishi tanlab olinadi.

INI medianasini hisoblash metodologiyasi qisqartirilgan INI ni hisoblash usuliga o'xshash. INI savatidagi tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi o'sish tartibida joylashtirilgach, 50-persentilda¹ joylashgan (*INI vaznlari bo'yicha*) tovar yoki xizmat narxining o'zgarishi INI medianasi sifatida aniqlanadi.

INI medianasi va qisqartirilgan INI ni hisoblashda chiqarib tashlanadigan tovar hamda xizmatlar tarkibi har oy o'zgarib turishi sababli ushbu usullarda hisoblangan bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichlarining tovar va xizmatlar guruhlarini kesimidagi hissalarini baholash o'z ahamiyatini yo'qotadi.

¹ Persentil - bu ma'lumotlar to'plamini 100 ta teng qismga bo'lib, har bir kesimning chegarasini ko'rsatuvchi statistik ko'rsatkichdir. Masalan, 50-persentil qiymatlar taqsimotining yarmi undan past, yarmi esa undan yuqori ekanini bildiradi.

Narxlari tartibga solinadigan tovar va xizmatlar ro'yxati

2025-yil holatiga

T/r	INIdagi t/r	Tovar va xizmat nomi
1	12	Birinchi navli bug'doy unidan tayyorlangan non
2	301	Ko'mir
3	361	Yengil avtomobillar
4	366	Benzin
5	367	Shaxsiy transport vositalari uchun propan
6	368	Shaxsiy transport vositalari uchun metan
7	430	Sovuq suv va kanalizatsiya uchun haq to'lash
8	431	Maishiy chiqindi uchun haq to'lash
9	433	Elektr energiyasi uchun haq to'lash
10	434	Tarmoq gaz uchun haq to'lash
11	435	Suyultirilgan gaz uchun haq to'lash
12	436	Issiq suv ta'minoti uchun haq to'lash
13	437	Markaziy isitish uchun haq to'lash
14	455	Shahar atrofidagi poyezdda yo'l haqi
15	456	Uzoq masofaga qatnaydigan poyezdda yo'l haqi
16	457	Metroda yo'l haqi
17	458	Tramvayda yo'l haqi
18	460	Shahar avtobusida yo'l haqi
19	461	Trolleybusda yo'l haqi
20	469	Mustahkam o'rnatilgan (turg'un) aloqa xizmatlari uchun telefon abonent to'lovi
21	482	Muzeylarning xizmatlari
22	483	Hayvonot bog'larining xizmatlari
23	488	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti
24	490	Shartnoma asosida davlat OTM larida o'qish
25	508	Diniy xizmatlar
26	509	Huquqiy tUSDagi xizmatlar

Meva va sabzavotlar ro'yxati

2025-yil holatiga

T/r	INIdagi t/r	Tovar nomi
1	78	Bananlar
2	79	Limonlar
3	80	Mandarinlar
4	81	Apelsinlar
5	82	Olmalar
6	83	Noklar
7	84	Shaftolilar
8	85	Uzumlar
9	86	Yangi uzilgan tarvuzlar
10	87	Yangi uzilgan qovunlar
11	88	Anorlar
12	99	Karam
13	100	Yangi uzilgan yoki sovutilgan ko'katlar (ukrop, petrushka, yashil kashnich va shu kabi)
14	101	Yangi uzilgan bodringlar
15	102	Yangi uzilgan pomidorlar
16	103	Baqlajonlar
17	104	Yangi uzilgan bulg'or qalampiri
18	105	Qovoq
19	106	Lavlagi
20	107	Sabzi
21	108	Sholg'om
22	109	Sarimsoq
23	110	Piyoz
24	111	Turp
25	112	Yangi uzilgan, sovutilgan va marinadlangan qo'ziqorinlar
26	113	Kartoshka